

## TA'LIM VA TARBIYADAGI KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

**Axmedova Mavlyuda Ro'ziboyevna**

*“I KNOW SCHOOL” xususiy maktabi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Ta'lim va tarbiyadagi qiyinchiliklar o'qituvchi tajribasi asosida ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor o'quvchilarning xulqi, motivatsiyasi va ta'limga munosabatiga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan. Muammolarni hal etish uchun amaliy yechimlar taklif etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, tarbiya, qiyinchiliklar, oilaviy omillar, pedagogic omillar, ijtimoiy omillar*

### Kirish

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayonida turli qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Ushbu muammolar nafaqat o'quvchilar bilimi va ko'nikmalariga, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim va tarbiya – inson kamolotiga olib boradigan ikki muhim yo'ldir. Agar ushbu yo'llarni to'g'ri tashkil etilmasa, jamiyat taraqqiyotida bo'shliqlar yuzaga keladi. Bugungi kunda axborot tez tarqalayotgan jadal rivojlanayotgan bir davrda ta'lim va tarbiyaga bo'lgan talab yanada oshib bormoqda. Shunday sharoitda ta'lim va tarbiyadagi kamchiliklarni bartaraf etish, bolani markazga qo'ygan yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning asosiy maqsadi ta'lim va tarbiyada yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni aniqlash. Ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Maqolada avvalo oilaviy va pedagogic omillar tahlil qilinadi, keyin zamonaviy texnologiyalar va psixologiya bilan bog'liq qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Oxirida qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

### Asosiy qism

Hozirgi kunda ta'lim va tarbiya sohasida kamchiliklar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning bilim olishi, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kamchiliklarni quyida bo'limlar orqali yoritmoqchiman.

#### 1. Oilaviy omillar va ularning ta'siri

Ushbu maqolani Oilaviy omillar va ta'siri haqida boshlamoqchiman, chunki hozirgi kunda ota – onaning bandligi va oiladagi munosabatlar farzandning shaxs sifatida rivojlanishiga ta'sir qilib kelmoqda. Ko'p ota – onalar ish bilan band bo'lgani uchun bolalar tarbiyasida yetarli vaqt yetkaza olmayotganini aytib o'tmoqchiman. Shuning oqibatida bolalarda intizom va ma'suliyat hissi pasaygan. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun oilada tarbiyaviy suhbatlar va bola bilan faol vaqt o'tkazish zarur. Shuningdek, ota – onalar va pedagoglar hamkorligi muhim ahamiyatga egadir.

#### 2. Ta'lim muassasalaridagi qiyinchiliklar

Yuqoridagi vaziyat oilada uchrayotgan bo'lsa, ta'lim muassasalaridagi vaziyat esa quyidagicha. Sinfidagi o'quvchilar soni ko'pligi va o'qituvchining ortiqcha yuklamasi



bolalarga individual yondashuvni qiyinlashtirmoqda. Bu esa o‘z o‘rnida bilim va ko‘nikmalarni shakllanishida samarasizlikka olib kelmoqda. Shu sababli maktablarda o‘quvchilar sonini optimallashtirish va malakali ustozlarni jalb qilish zarur. Shuningdek, o‘quv jarayonlarda harakatli ta‘lim, o‘yin + bilim formulasi va individual usullardan foydalanish samarani oshiradi.

### 3. Zamonaviy texnologiyalar va internet ta‘siri

Smartfon va ijtimoiy tarmoqlar bolalarning diqqatini chalg‘itish va kitobga bo‘lgan qiziqishini kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu qiyinchilikni yengish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish, interaktiv ta‘lim resurslari va electron kitoblardan foydalansak bolalarni yana kitob o‘qishga jalb qila olardik. Shu orqali bolalar zamonaviy texnologiyalarni bilim olish uchun va shaxsiy rivojlanish uchun ishlatishni o‘rganadilar.

### 4. O‘quvchi psixologiyasi va motivasiya

O‘quvchilarning motivasiyasi past bo‘lib ketganligi, intizom muammolari va e‘tiborning chalg‘ishi ta‘lim – tarbiya jarayonini juda qiyinlashtirmoqda. Bunday holatlarda pedagoglar psixologik treninglar, motivasion usullar – bu namunaga loyiq insonlarni targ‘ib qilish va o‘quvchini qiziqish, qobiliyatiga ko‘ra individual yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘quvchi o‘zini o‘zi baholash va o‘zi o‘ziga maqsad qo‘yish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berish va rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga egadir.

### 5. Qiyinchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha umumiy amaliy tavsiyalar

Ushbu maqolada bir qator muammolarni keltirib o‘tdim. Lekin bolalar bizning kelajagimiz, ular bizning quvonchimiz va baxtimizdir. Shuning uchun to‘siq bo‘layotgan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llariga oydinlik kiritmoqchiman. Maqsadim – muammolarni tushunish va samarali yechim taklif qilishdan iborat.

- Birinchi navbatda oila va maktab hamkorligini kuchaytirish zarur.

Ota – ona va pedagoglar o‘rtasida doimiy muloqot yo‘lga qo‘yish lozim. Bolaning kundalik maktabdagi hayoti ota – onalar uchun ochilgan internet guruhlarida, yig‘ilishlarda, ochiq darslar va kun tarbiya soati, suhbatlari orqali bolaning hulqi, natijalari muhokama qilinishi kerak. Oilada esa bola uchun aniq qoidalar va tartib o‘rnatilishi tarbiya samaradorligini oshiradi.

- Individual yondashuv joriy etish

Har bir bolaning qobiliyati va psixologiyasi turlicha bo‘lgani sababli o‘qitish jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyatga egadir. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim darajasi va qiziqishlarini inobatga olgan holda ish olib borish tavsiya etiladi. Bu usul o‘quvchilarning o‘z – o‘ziga ishonchini oshiradi.

- Oquvchilarda motivasiyani oshirish

O‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish uchun rag‘batlantirish usullaridan foydalanish kerak. O‘quvchilarning kichik yutuqlarini ham e‘tirof etish, ularni ham maktabda ham uyda maqtash va qo‘llab – quvvatlash muhimdir. Ta‘lim mazmunini hayot bilan bog‘lash bolada hamma narsaga motivasiyasini oshiradi.

- Zamonaviy texnologiyalardan maqsadli foydalanish



Bolalar hozir internetdan foydalanishsiz hayotini tasavvur qilmaydi. Demak biz smartfon va internetdan faqat ko'ngil ochar vosita emas, balki bilim olish manbasi sifatida foydalanishga o'rgatishimiz lozim. Onlayn platformalar, electron kitoblar va interaktiv dasturlar orqali ta'lim jarayonini boyitish kerak. Shu bilan birga, ortiqcha foydalanishga cheklov qo'ysa bo'ladi.

- Psixologik qo'llab – quvvatlashni yo'lga qo'yish

Maktablarda psixolog xizmatini faollashtirish va mavzuviy darslarni yo'lga qo'yilsa nima foyda, nima ziyon mavzularini bolalar o'zlari muhokama qilar edi. Yana o'quvchilar bilan individual suhbatlar, trening va maslahatlar olib borish orqali ularning ichki qiyinchiliklarini kamaytirish mumkin. Bu bolalarning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi.

- Intizom va ma'suliyatni shakllantirish

O'quvchilarda intizom shakllantirish uchun aniq qoidalar va talablar ishlab chiqish zarur. Lekin u jazo bo'lishi kerak emas, tushuntirish va tarbiyaviy yondashuv ustuvor bo'lishi lozim. Bolalarda ma'suliyat hissini oshirish ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Intizomni ta'minlash uchun maktab va sinfda aniq qoidalar bo'lishi kerak. Ushbu qoidalar o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilib, ularga oldindan tushuntirilib, barchasi uchun teng qo'llanishi zarur. Intizomni shakllashda o'qituvchi va ota – ona shaxsiy namuna orqali ko'rsata oladi. O'qituvchi darsga o'z vaqtida kirishi, muomala madaniyati va talabchanligi o'quvchilar uchun namunadir. Pedagogning o'zini tutishi intizomni shakllantirishda muhim omildir. Intizom muammolarida ota – onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Maktab va oilada talablar o'zaro muvofiq bo'lsa, natija samarali bo'ladi.

- Eng asosiy narsa ota – ona va ustozlar tomonidan bolalarni tushunishdir. Ota – ona bolaning o'qishdagi qiyinchiligini tan olishi va uni kamchilik emas, balki yechim sifatida qabul qilishi lozim.

Shu o'rinda ta'lim va tarbiyadagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq maslahatlar keltirib o'tmoqchiman:

1. Ota – ona uchun amaliy tavsiyalar:

• Bolani boshqa o'quvchilar bilan solishtirmaslik, faqat kechagi natijasi bilan taqqoslash;

• Bolani doimiy tanqid qilmasdan, uning harakatini rag'batlantirish;

• Uyda kun tartibini belgilash: o'qish, dam olish, telefon vaqti, sayr vaqti ;

• Bolani doim tinglash, uning fikri va muammosiga jiddiy qarash;

• Bolaning mustaqil qaror qabul qilishiga imkon berish;

• Uning qobiliyatini va qiziqishlarini qo'llab – quvvatlash;

• Uyda tinch va tartibli o'qish muhitini yaratish;

• Bolaning ruhiy holatiga e'tibor berish;

• Maktab va ustozlar bilan doimiy aloqada bo'lish.

Ota – onaning ishonchi va qo'llab – quvvatlashi bolada o'z – o'ziga ishonchini oshiradi, shuning uchun bolani doim kayfiyatini ko'tarishga harakat qilish lozim.

2. Ustozlar tomonidan qilinishi lozim bo'lgan ishlar :

• Ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi shaxsdir. Shu sababli o'qituvchi har bir bolaga individual yondashuvi muhim.

- O‘quvchining qiyinchiligini aniqlash va sababini tushunish;
  - Darslarni qiziqarli va interaktiv usulda olib borish;
  - Bolani tanqid qilish emas, rag‘batlantirish ;
  - Sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan qo‘shimcha ishlash.
  - Qattiq jazo o‘rniga tushuntirish va ishontirish usulini qo‘llash;
  - Bolaning kichik yutug‘ini ham e’tirof etish;
  - Darsdan tashqari ijobiy munosabat o‘rnatish yo‘llarini topish;
  - Yaxshi ustoz bolada o‘qishga bo‘lgan qiziqishini qayta uyg‘ota oladi.
3. Ruhiy muhitni yaxshilash bo‘yicha :
- Sinfda qo‘rquv emas, balki ishonch muhitini yaratish;
  - Xatolarni o‘rganish vositasi sifatida qabul qilish va bartaraf etishga o‘rgatish;
  - O‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;
  - Psixolog bilan muntazam hamkorlik qilish.
4. Intizom va ma’suliyatni shakllantirish:
- Qoidalarni bolalar bilan birgalikda belgilash va ularga izchil amal qilish;
  - Bolani yoshiga mos vazifalar berish;
  - Bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar uchun javobgarlikni his qildirish;
  - Faqat ijobiy intizom usullaridan foydalanish.
5. Zamonaviy ta’lim usullarini joriy etish:
- Darslarda vizual vositalardan foydalanish – rasm, video, jadval;
  - Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar bilan bolani rivojlantirish;
  - Amaliy mashqlarga ko‘proq e’tibor berish;
  - Axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanish.
6. Internet va telefondan to‘g‘ri foydalanish:
- Bolani ekran vaqtiga chegara qo‘yish;
  - Foydali ta’limiy platformalarni tavsiya qilish;
  - Internet madaniyatini o‘rgatish;
  - Ota – ona va Ustoz nazoratini tizimli yo‘lga qo‘yish.
7. Ma’naviy – ahloqiy tarbiyani kuchaytirish :
- Bolalarni kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘llarini izlash;
  - Kitob o‘qishni keng rag‘batlantirish;
  - Milliy qadriyatlar va urf – odatlarga tayanish;
  - Kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlikga o‘rgatish.
8. Baholash tizimini takomillashtirish:
- O‘quvchiga o‘z xatosini tushuntirib, to‘g‘rilashga undash;
  - Ochiq va adolatli baholash mezonlarini qo‘llash;
  - Faqat natija emas, jarayonni ham baholash;
  - Kamchiliklarni bartaraf etish uchun ko‘mak va vaqt berish.
9. Bolani markazga qo‘yish:
- Bolada MEN QODIRMAN degan ishonchini shakllantirish;
  - Bolani doim quvvatlab turish.

10. Ota – ona va Ustoz hamkorligi

Ta’limdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda ota – ona va ustozlar yagona jamoa sifatida ishlasa natijaga erishadilar.

- Muntazam uchrashuvlar va suhbatlar;
- Bolaning rivoji haqida axborot almashish;
- Bir xil talab va qoidalarni qo‘llash;
- Bolani markazga qo‘ygan holda qaror qabul qilish;
- O‘zaro hurmat, ishonch tuyg‘ularini ustuvor qo‘yish.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ta’lim va tarbiyada uchrayotgan kamchiliklar tasodifiy holat emas, balki oila, maktab va jamiyat bilan bog‘liq omillar natijasidir. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun gaqatgina o‘quvchidan natija talab qilish yetarli emas. Eng avvalo , bolaning ruhiy holati, qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olgan holda yondashish zarur. Ota – onalar birinchi tarbiyachisi va namunasi sifatida unga mehr, e’tibor va ishonch berishlari, Ustozlari esa bilim bilan birga tarbiyani ham uyg‘un olib borishlari lozim, Ushbu ikki tomonning o‘zaro hamkorligi bolada ma’suliyat, intizom va mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim usullaridan foydalanish, adolatli baholash va ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Faqat shu yo‘l bilangina barkamol, bilimli va jamiyatga foydali, vijdonli shaxsni tarbiyalash mumkin. Bugun ta’limga berilayotgan e’tibor – ertangi jamiyatning poydevoridir. Kelajak avlod taqdiri har birimizning qo‘limizda. Ta’limga qilingan sarmoya – eng samarali sarmoyadir. Shu bois ta’lim va tarbiyadagi kamchiliklarga befarq bo‘lmasdan, ularni bartaraf etish yo‘lida hamjihatlik zarur. Natija esa faqat birgalikda qilingan harakatlar orqali qo‘lga kiritiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

- 1.Isoqjon Muhammadjon o‘g‘li – Ta’lim va tarbiya
- 2.Abdulla Ahmedovich Madaliyev – Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi – komol insonni shakllantirish garovi
- 3.Do‘stmuhammedova Sh.A. , Nishanova Z.T. – Yosh davrlari va pedagogic psixologiya
4. Daniel T. Willingham – Why Don’t Students Like School?